Ilmiy adabiyotda raqamli marketingning alohida elementlari — web-analitika, bashoratli tahlil, personallashtirish, kontent strategiyasi — yetarlicha batafsil yoritilgan. Biroq ushbu elementlarning sotish samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan yaxlit mexanizm sifatida birlashtirilishi hali ham kam o'rganilgan yo'nalish bo'lib qolmoqda. Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun maqbul bo'lgan, resurs cheklovlarini hisobga oluvchi metodologik yondashuvlar milliy ilmiy adabiyotda yetarlicha taqdim etilmagan.

Ilmiy ishlanmaning maqsadi — raqamli marketing tadqiqotlari asosida sotish samaradorligini oshirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash va ularning tarkibiy elementlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal qilindi: raqamli marketing tadqiqotlarining zamonaviy nazariy yondashuvlari umumlashtirildi; sotish voronkasining har bir bosqichidagi samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi instrumental mexanizmlar aniqlandi; global va mintaqaviy statistik ma'lumotlar asosida mexanizmlarning ishlash mantig'i asoslandi; kichik va o'rta biznes uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ishlanmaning ilmiy yangiligi raqamli marketing tadqiqotlarining sotish samaradorligini oshirishdagi rolini yaxlit tizim sifatida konseptuallashtirilishi bilan belgilanadi. Kirish ma'lumotlari, tahlil mexanizmlari va chiqish ko'rsatkichlarini bog'lovchi mantiqiy zanjir shakllantirilib, har bir bosqichning miqdoriy va sifat o'lchovlari asoslandi. Taklif etilayotgan integratsion metodologiya raqamli analitika, mijozlar munosabatlarini boshqarish platformasi va kontent strategiyasini yagona konseptual konturda birlashtiradi.

Maqolaning tarkibi ilmiy mantiq izchilligini saqlagan holda tuzildi: adabiyotlar sharhida nazariy poydevor asoslandi; metodologiya qismida tadqiqotning uslubiy apparati keltirildi; tahlil va natijalar bo'limida mexanizmlarning ishlash tartibi asoslandi; xulosa qismida umumlashtiruvchi tamoyillar va amaliy tavsiyalar bayon etildi. Keltirilgan tuzilma ilmiy o'quvchining muammo mantig'ini izchil kuzatishiga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketing tadqiqotlarining nazariy poydevori an'anaviy marketing konsepsiyalari bilan chambarchas bog'liqlikda shakllandi. F. Kotler va K. Kellerning marketing menejmenti bo'yicha fundamental ishi iste'molchi xulq-atvorini o'rganish, bozorni segmentatsiyalash va maqsadli segmentlarni tanlashning klassik metodologiyasini shakllantirdi [6]. D. Chaffey va F. Ellis-Chadwick raqamli marketing konsepsiyasining tizimli asoslarini ishlab chiqib, onlayn va oflayn kanallarni integratsiyalashning strategik modelini taklif etdilar [5]. Keltirilgan ishlar raqamli muhitda marketing tadqiqotlarining predmet doirasini kengaytirdi va yangi uslubiy tushunchalarni akademik muomalaga kiritdi.

So'nggi o'n yillikda xalqaro akademik jurnallarda raqamli marketingning alohida jihatlari chuqur tadqiq etildi. P. K. Kannan va H. A. Li "Digital marketing: A framework, review and research agenda" deb nomlangan konseptual maqolasida raqamli marketingning asosiy tushunchalarini tizimlashtirib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun asosiy yo'nalishlarni asoslab berdi [1]. Mualliflar raqamli marketingni iste'molchining raqamli aloqa nuqtalari orqali qiymat yaratish jarayoni sifatida konseptuallashtirdi. Keltirilgan yondashuv keyinchalik rivojlangan ko'plab tadqiqotlarning uslubiy asosi bo'lib xizmat qildi.

C. Lamberton va A. T. Stephenning ishlari raqamli, ijtimoiy media va mobil marketingning tematik xaritasini yaratib, ushbu sohadagi ilmiy ishlanmalarning uchta asosiy yo'nalishini — iste'molchi xulq-atvori, firma



strategiyasi va texnologik platformalar dinamikasini — farqladi [2]. Ularning meta-tahlili raqamli marketing adabiyotining konseptual qurilmasini tizimlashtirish uchun muhim ma'lumot manbasi bo'lib qoldi va keyingi tadqiqotlarda iqtibos jihatidan markaziy o'rinni egalladi.

Marketing analitikasining metodologik jihatlari M. Wedel va P. K. Kannan tomonidan batafsil o'rganildi. "Marketing analytics for data-rich environments" maqolasida mualliflar marketing ma'lumotlarining hajm, tezlik va xilma-xillik jihatidan o'zgarishini tadqiq qilib, ularni qayta ishlash uchun mashina o'rganish, bashoratli modellashtirish va tarmoq tahlildan foydalanish zaruriyatini asosladi [4]. Ularning tadqiqoti raqamli marketing analitikasining zamonaviy apparatini nazariy jihatdan chuqurlashtirdi.

Web-analitikaning marketing samaradorligini baholashdagi amaliy rolini J. Järvinen va H. Karjaluo tomonidan tadqiq etdi. Mualliflar web-analitika vositalari orqali to'planadigan ma'lumotlarning marketing qarorlariga ta'sirini sanoat marketingi kontekstida o'rgandi va analitik madaniyatni joriy etishning tashkiliy shartlarini aniqladilar [18]. Ularning empirik ishi web-analitikaning marketing faoliyatini raqamli ko'rsatkichlar bilan baholash imkoniyatini beruvchi asosiy vosita ekanligini tasdiqladi.

Raqamli transformatsiyaning yaxlit konseptual doirasini P. C. Verhoef va hamkasblari ishlab chiqdilar. "Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda" maqolasida mualliflar raqamli transformatsiyaning uch bosqichi — raqamlashtirish (digitization), raqamlashtirilish jarayoni (digitalization) va raqamli transformatsiya — o'tasidagi konseptual farqni asoslab, marketing funksiyasining har bir bosqichdagi o'zgarishini tavsifladilar [3]. Ushbu tadqiqot raqamli marketingni kompaniyaning umumiy raqamli strategiyasi doirasida joylashtirish uchun metodologik asos yaratdi.

Mijozlar munosabatlarini boshqarish (CRM) tizimlarining sotish samaradorligiga ta'siri V. Kumar va W. Reinartzning fundamental monografiyasida yaxlit tarzda o'rganildi [21]. Mualliflar mijoz hayoti sikli davomida yaratiladigan qiymatni baholash, mijozlar portfelini optimallashtirish va sadoqatni kuchaytirish uchun qo'llaniladigan matematik modellarni tizimlashtirdilar. Keltirilgan ishlanma CRMni raqamli marketing tadqiqotlarining muhim komponenti sifatida joylashtirdi.

Raqamli davrda marketingning asosiy muammolari va yechimlari P. Leeflang va hamkasblari tomonidan Yevropa boshqaruvi jurnalida tahlil qilindi. Mualliflar to'rt chaqiriqni — ma'lumotlar hajmi, raqamli kanallarning xilma-xilligi, iste'molchi xulq-atvorining tez o'zgaruvchanligi va marketing mutaxassislarining analitik malakalari tanqisligini — aniqlab, har biri uchun strategik yechimlar taklif etdilar [20]. Keltirilgan tadqiqot raqamli marketingni boshqarish amaliyotiga tizimli yondashuvning asoslarini mustahkamladi.

Raqamli marketing amaliyotining miqdoriy ko'rsatkichlari HubSpot, Salesforce va Ascend2 kabi tadqiqot tashkilotlarining yillik hisobotlarida aks etadi. HubSpot "State of Marketing" hisoboti har yili marketing mutaxassislari orasida o'tkaziladigan keng ko'lamli so'rovnoma asoslanib, raqamli marketing tendensiyalarini miqdoriy o'lchovlarda taqdim etadi [12]. Salesforce "State of Marketing" tadqiqotlari esa mijozlar munosabatlarini boshqarishning raqamli platformalaridagi amaliyotni umimlashtiradi [24]. Keltirilgan manbalar akademik adabiyotdagi nazariy konstruksiyalarni amaliy statistikalar bilan to'ldiradi.

Sotish voronkasi (sales funnel) konsepsiyasi D. Ryanning "Understanding Digital Marketing" kitobida raqamli muhit jihatidan izchil yoritilgan [19]. Muallif iste'molchi safari (customer journey) modeli asosida xabardorlikdan sadoqatgacha bo'lgan bosqichlarni aniqlab, har bir bosqichda qo'llanishi kerak bo'lgan raqamli instrumentlarni tavsifladi. Keltirilgan yondashuv sotish samaradorligini oshirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

Sun'iy intellekt va mashina o'rganishning marketing amaliyotidagi o'rni McKinsey & Company tomonidan olib borilgan keng ko'lamli sanoat tadqiqotlarida baholandi [11]. Kompaniyaning hisobotlari bashoratli modellar, tavsiya tizimlari va avtomatlashtirilgan kampaniya optimizatsiyasining biznes natijalariga ta'sirini miqdoriy ko'rsatkichlarda aks ettirdi. Deloitte "Global Marketing Trends" hisobotlari esa marketing transformatsiyasining strategik chizig'ini umimlashtirdi [14]. Keltirilgan manbalar nazariy adabiyotni amaliy kontekstda boyitadi.

Xalqaro statistik manbalar orasida UNCTAD "Digital Economy Report" hisobotlari raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning global tendensiyalarini yoritishda markaziy o'rinni egallaydi [7]. Statista bazalari esa raqamli reklama sarf-xarajatlari, elektron tijorat aylanmasi va iste'molchi xulq-atvoriga oid miqdoriy ko'rsatkichlarning eng yirik jamlanmalaridan biri hisoblanadi [8]. Jahon banki va OECD hisobotlari raqamli iqtisodiyot siyosatining makroiqtisodiy va institutsional jihatlarini yoritib beradi [9; 10].

O'zbekistondagi raqamli iqtisodiyot bo'yicha ochiq rasmiy manbalar — Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank va Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligining ma'lumotlar bazalari — milliy kontekstdagi ilmiy tadqiqotlar uchun birlamchi ma'lumot manbasi sifatida xizmat qiladi [15; 16; 25]. Keltirilgan manbalar mahalliy bozor xususiyatlarini empirik baholashga asos bo'ladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy adabiyotlarning umimlashtirishi quyidagicha xulosaga olib keldi: raqamli marketingning alohida komponentlari akademik muomalada yetarlicha chuqur tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularning sotish samaradorligini oshirish vazifasi doirasida yaxlit mexanizm sifatida konseptualashtirilishi va,

xususan, o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi kichik va o'rta biznes uchun moslashtirilgan metodologik modelning ishlab chiqilishi yetishmayapti. Ushbu bo'shliqni to'ldirish ilmiy ishlanmaning mantiqiy asosini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik yondashuv asosida amalga oshirildi va deduktiv mantiq ustuvor bo'ldi. Tadqiqot jarayonida raqamli marketing, marketing analitikasi hamda sotish samaradorligi bo'yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan manbalar asosida 2014–2024-yillarga oid ilmiy maqolalar tanlab olindi hamda mazmuniy muvofiqlik va ilmiy ahamiyat mezonlari asosida saralandi. Kontent tahlili yordamida asosiy tushunchalar va kategoriyalar tizimlashtirildi hamda sotish samaradorligini oshiruvchi omillar ajratib olindi.

Qiyosiy tahlil bosqichida xalqaro tashkilotlar va konsalting hisobotlaridagi statistik ma'lumotlar o'rganildi. Meta-tahlil orqali turli manbalardagi ko'rsatkichlar umumlashtirildi. Yakuniy bosqichda konseptual modellashtirish usuli qo'llanilib, kirish ma'lumotlari, tahlil mexanizmlari va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik yagona tizimga keltirildi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli marketing tadqiqotlarining global miqyosda biznes amaliyotiga ta'siri statistik dalillar orqali aniq tasdiqlanadi. BMTning UNCTAD "Digital Economy Report" hisobotiga ko'ra, jahondagi global B2B va B2C elektron tijorat aylanmasi 2022-yilda 27 trillion AQSh dollaridan oshdi, bu raqamli iqtisodiyotning jahon yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i jadal o'sib borayotganligini ko'rsatadi [7]. Statista ma'lumot bazasida global chakana elektron tijorat 2024-yilda 6 trillion AQSh dollaridan oshganligi qayd etildi va ushbu ko'rsatkichning 2027-yilgacha barqaror o'sishi prognoz qilindi [8]. Keltirilgan tendensiya raqamli kanallardagi sotuv jarayonlarining ilmiy asoslangan boshqaruviga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumot bazasi internet foydalanuvchilari sonining barqaror o'sishini va elektron tijorat operatorlari miqdorining kengayishini tasdiqlaydi [15]. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi rasmiy portalida keltirilgan ma'lumotlarga binoan, mamlakatda elektron tijorat platformalari faoliyati kengaymoqda va kichik biznes subyektlari raqamli kanallar orqali realizatsiyani faol joriy etmoqda [25]. Milliy bozor xususiyatlari global tendensiyalarga ijobiy uyg'unlashuv ko'rsatmoqda.

Sotish samaradorligini oshirish mexanizmlarini o'rganish iste'molchi safari (customer journey) tuzilmasini tushunishdan boshlanadi. Ryan tomonidan taqdim etilgan klassik tipologiyaga binoan, raqamli muhitdagi sotish voronkasi beshta asosiy bosqichni — xabardorlik, qiziqish, baholash, xarid va sadoqat — o'z ichiga oladi [19]. Har bir bosqichda raqamli marketing tadqiqotlari orqali qo'llaniladigan o'ziga xos mexanizmlar mavjud.

Xabardorlik bosqichi (awareness stage)da maqsad potensial mijozlarning kompaniya va uning taklifi haqida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bunda kontent marketing, qidiruv tizimlari optimizatsiyasi (SEO) va ijtimoiy tarmoqlardagi organik ko'rinishning roli asosiy o'rinni egallaydi [5]. Kannan va Li tadqiqotlari raqamli kontentning sifati va taqsimlanish kanali maqsadli auditoriyani samarali qamrab olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi [1].

Qiziqish bosqichi (interest stage)da potensial mijoz o'z ehtiyojini aniqlaydi va yechimlarni izlashni boshlaydi. Bu bosqichda web-analitika ma'lumotlari muhim rol o'ynaydi: foydalanuvchining sayt bilan o'zaro ta'sir namunalari, sahifalarda o'tkazgan vaqti, qidiruv so'rovlari bo'yicha ma'lumotlar mijozning qiziqish darajasi va o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatini beradi [18]. Järvinen va Karjaluo empirik tadqiqoti web-analitikaning marketing qarorlari uchun informativ baza yaratishdagi hal qiluvchi rolini dalilladi.


Baholash bosqichi (consideration stage)da iste'molchi muqobil yechimlarni taqqoslaydi. Bunda personallashtirilgan tavsiya tizimlari samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. McKinsey & Company tadqiqotlari oldindan ishlab chiqilgan mijoz profiliga asoslangan personallashtirilgan tavsiyalar konversiya darajasini barqaror tarzda oshirishga erishganligini ko'rsatdi [11]. Wedel va Kannan marketing analitikasining asoslarini chuqurlashtirib, tavsiya tizimlari mashina o'rganish algoritmlariga tayangan holda mijozning xulqidan kelib chiqib keyingi ehtiyojlarini oldindan aniqlashi mumkinligini dalilladi [4].

Xarid bosqichi (purchase stage) sotish samaradorligini oshirishning klassik fokus zonasidir. Bu bosqichda A/B va multivariant testlash, to'lov jarayonining optimizatsiyasi va xaridni tashlab ketishning oldini olish mexanizmlari qo'llaniladi. A/B testlashning mohiyati shundan iboratki, u ikki yoki undan ortiq kontent variantlari orasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni aniqlash orqali konversion ko'rsatkichlarni oshiruvchi optimal yechimni tanlash imkoniyatini beradi [5; 12]. Mazkur metod kontentning mazmuni, sahifa dizayni, "call-to-action" tugmalarining rangi va joylashuvi, to'lov jarayonining qulayligi kabi ko'p omillarga nisbatan qo'llaniladi.



Sadoqat bosqichi (loyalty stage)da mijozning takroriy xaridlari va uzoq muddatli qiymat yaratishi ta'minlanadi. Kumar va Reinartz ishlari mijozning hayotiy qimmatligi (Customer Lifetime Value — CLV) ko'rsatkichini oshirish uchun segmentatsiyaga asoslangan sadoqat dasturlari, personallashtirilgan kommunikatsiya va mijoz fikr-mulohazasini tizimli yig'ish mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi [21]. Omnikanal CRM integratsiyasi mijoz bilan har bir aloqa nuqtasida izchil tajriba yaratishga imkoniyat beradi.

Raqamli marketing tadqiqotlarining sotish samaradorligini oshiruvchi mexanizmi uchta strukturaviy komponentdan tashkil topadi: kirish elementlari, tahlil mexanizmlari va chiqish ko'rsatkichlari. Uchala komponent teskari aloqa mexanizmi orqali doimiy takomillashuvda bo'lgan yaxlit tizimni hosil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli marketing tadqiqotlari asosida sotish samaradorligini oshirish mexanizmining konseptual sxemasi¹

1-rasmda aks etganidek, kirish elementlari besh asosiy ma'lumot oqimini birlashtiradi. Web-analitika platformalari (Google Analytics, Adobe Analytics, Yandex Metrika va boshqalar) foydalanuvchi xatti-harakati, trafik manbalari va konversion hodisalarga oid aniq miqdoriy ko'rsatkichlarni tizimli taqdim etadi. Mijoz profili va CRM ma'lumotlar bazasi demografik xususiyatlar, xarid tarixi va kontent afzalliklari haqidagi strukturaviy ma'lumot manbasini hosil qiladi [21]. Ijtimoiy tarmoq signallari iste'molchining qiziqish doirasi, hissiy munosabati va ijtimoiy ta'sirini aks ettiradi [2]. Savdo voronkasi jurnali konversion hodisalarning izchilligini to'playdi. Kontent va kompaniya ko'rsatkichlari esa marketing xarajatlarning samaradorligini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil mexanizmlari kirish ma'lumotlarini qayta ishlab, amaliy qarorlar uchun zarur tushunchalarni ishlab chiqadi. Segmentatsiya va targetlash mijoz bazasini gomogen guruhlariga ajratib, har bir guruhga moslashtirilgan marketing taklifini yaratishga imkoniyat beradi [6]. Bashoratli tahlil (ML modellari) mijozning keyingi xatti-harakatini, masalan, xaridni tashlab ketish ehtimoli yoki takroriy xarid yo'nalishini statistik jihatdan bashorat qiladi [4; 11]. Personallashtirilgan tavsiya tizimi mijozning oldingi qaroriga, qiziqishlariga va o'xshash profilga ega boshqa mijozlar xulqiga asoslanib individual takliflar taqdim etadi [1]. A/B va multivariant testlash marketing materiallarining samaradorligini empirik asosda tasdiqlaydi. Kontent va SEO optimizatsiyasi qidiruv ko'rinishini oshirib, organik trafikni kengaytiradi [5]. Omnikanal CRM integratsiyasi barcha aloqa nuqtalaridagi mijoz tajribasini yagona kontekstda boshqaradi [14; 24].

Chiqish ko'rsatkichlari mexanizmining samaradorligini miqdoriy jihatdan o'lchash imkoniyatini beradi. Konversiya darajasi (Conversion Rate — CR) web-sayt tashriflarining xarid amallariga aylanish ulushini aks ettiradi. Mijozni jalb qilish qiymati (Customer Acquisition Cost — CAC) yangi mijoz olish uchun sarflangan marketing xarajatlarini o'lchaydi. Mijoz hayotiy qimmatligi (Customer Lifetime Value — CLV) mijozdan olinishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli daromadni aniqlaydi. O'rtacha chek (Average Order Value — AOV) har bir buyurtmaning pulda ifodalangan qiymatini o'lchaydi. Ushlab qolish darajasi (Customer Retention Rate) esa takroriy xaridlar ulushi orqali sadoqat darajasini baholaydi [21; 24]. Ko'rsatilgan metrikalar teskari aloqa

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



mexanizmi orqali segmentatsiya va bashoratli modellarni takomillashtirish uchun yangi ma'lumot oqimini hosil qiladi, natijada tizimning uzluksiz o'qitilish va takomillashish sikli ta'minlanadi.

Raqamli marketing samaradorligi bo'yicha xalqaro amaliyotga oid miqdoriy ma'lumotlar mexanizmlarning ta'sirini qiyosiy asosda baholash imkoniyatini beradi. HubSpot "State of Marketing" hisobotlarida ko'p yillik kuzatuvlar asosida personallashtirilgan email marketing kampaniyalarining ochilish va konversiya ko'rsatkichlari umumiy yuborishlarga nisbatan sezilarli yuqoriligi tasdiqlangan [12]. Salesforce tadqiqotlari CRM platformasi va marketing avtomatlashtirishning integratsiyasi mijoz ushlab qolish darajasini barqaror oshiruvchi asosiy mexanizm ekanligini ko'rsatdi [24]. Ascend2 tadqiqotlari esa A/B testlash amaliyotining konversiya oshirishdagi samaradorligini empirik asosda tasdiqladi [22].

Insider Intelligence (eMarketer) global elektron tijoratga oid prognozlarini raqamli reklama sarf-xarajatlari bilan sotuv aylanmasi o'sishi o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani ko'rsatdi [23]. Think with Google iste'molchi insightlariga oid tadqiqotlar esa mobil qurilmalar orqali xarid qabul qilish jarayoni konversion zanjirning hal qiluvchi bo'g'ini ekanligini tasdiqladi [13]. Keltirilgan dalillar raqamli marketing mexanizmlarining biznes natijalariga ijobiy ta'sirini ishonchli tarzda asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida raqamli marketing mexanizmlarini joriy etish strategik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Prezidentning "O'zbekiston — 2030" strategiyasida raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning milliy yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish vazifasi aniq belgilab qo'yilgan [17]. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan elektron tijorat subyektlari soni yildan-yilga o'sib bormoqda [15]. Markaziy bankning rasmiy ma'lumot bazasi to'lov kartalari va bank bo'lmagan to'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan to'lovlar ko'lamining barqaror kengayishini qayd etadi [16].

Mamlakat sharoitida raqamli marketing mexanizmlarini samarali joriy etish uchun bir qancha moslashuvchi shartlar mavjud: milliy bozor kichik va o'rta biznes subyektlari bilan to'la, ularning aksariyati cheklangan resurs va analitik malakalarga ega; ko'p funktsiyali va arzon raqamli instrumentlarning tanqisligi hal etilishi lozim bo'lgan masala bo'lib qolmoqda. Biroq Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi ochiq rasmiy portali orqali qo'shiladigan davlat ko'magi dasturlari keltirilgan cheklovni yumshatadi [25]. Milliy bozor sharoitida birinchi navbatda mijoz profili va CRM, so'ngra web-analitika, keyin personallashtirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish eng maqbul strategiya bo'lib qolmoqda.

Ko'rsatilgan empirik va qiyosiy baholash raqamli marketing tadqiqotlariga asoslangan sotish samaradorligini oshirish mexanizmining global tendensiya va milliy sharoit talablariga mos kelishini isbotladi. Har bir bosqichdagi kirish, qayta ishlash va chiqish oqimlarining yaxlit bog'lanishi tadqiq etilgan konseptual modelning nazariy va amaliy foydaliligini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda raqamli marketing tadqiqotlarining sotish samaradorligiga ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar raqamli marketing alohida vositalar yig'indisi emas, balki kirish ma'lumotlari, tahlil mexanizmlari va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslangan yaxlit tizim ekanligini ko'rsatdi. Web-analitika, CRM tizimlari va bashoratli tahlil vositalari sotish voronkasining barcha bosqichlarida qaror qabul qilish aniqligini oshirishi asoslandi. Konversiya darajasi, mijozni jalb qilish qiymati va mijoz hayotiy qiymati kabi ko'rsatkichlar tizimning samaradorligini baholovchi asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Tahlil natijalari raqamli marketing mexanizmlarini izchil joriy etish sotish jarayonini optimallashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va mijoz bilan ishlash sifatini yaxshilash imkonini berishini ko'rsatdi. Milliy bozor sharoitida ushbu mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish amaliy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Amaliy takliflar quyidagilardan iborat. Korxonalarda dastlab yagona ma'lumot yig'ish infratuzilmasini shakllantirish zarur, bunda web-analitika va CRM tizimlari integratsiyasi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Mijoz ma'lumotlari asosida segmentatsiya jarayonini joriy etish marketing resurslarini maqsadli taqsimlash imkonini beradi. Sotish jarayonida personallashtirilgan takliflardan foydalanish konversiya ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi. Marketing faoliyatida A/B testlashni muntazam qo'llash qarorlarning empirik asoslanganligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, omnikanal yondashuv asosida barcha aloqa nuqtalarini yagona tizimga birlashtirish mijoz tajribasining izchilligini ta'minlaydi. Korxonalarda marketing analitikasi bo'yicha ichki kompetensiyalarni rivojlantirish, xodimlarni ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalariga o'rgatish zarur. Raqamli marketing faoliyatida samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish va ular asosida strategiyani moslashtirib borish tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.



Mazkur yondashuvlar kichik va o'rta biznes subyektlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kannan, P. K., Li, H. A. Digital marketing: A framework, review and research agenda // *International Journal of Research in Marketing*. 2017. Vol. 34, No. 1. P. 22–45. <https://doi.org/10.1016/j.ijresmar.2016.11.006>
2. Lamberton, C., Stephen, A. T. A thematic exploration of digital, social media, and mobile marketing: Research evolution from 2000 to 2015 and an agenda for future inquiry // *Journal of Marketing*. 2016. Vol. 80, No. 6. P. 146–172. <https://doi.org/10.1509/jm.15.0415>
3. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., Haenlein, M. Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda // *Journal of Business Research*. 2021. Vol. 122. P. 889–901. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.09.022>
4. Wedel, M., Kannan, P. K. Marketing analytics for data-rich environments // *Journal of Marketing*. 2016. Vol. 80, No. 6. P. 97–121. <https://doi.org/10.1509/jm.15.0413>
5. Chaffey, D., Ellis-Chadwick, F. *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice*. 8th ed. Harlow: Pearson Education, 2022. 568 p. <https://www.pearson.com/en-gb/subject-catalog/p/digital-marketing-strategy-implementation-and-practice/P200000005736>
6. Kotler, P., Keller, K. L. *Marketing Management*. 16th Global Edition. Harlow: Pearson Education, 2021. 832 p. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/marketing-management/P200000005868>
7. UNCTAD. *Digital Economy Report 2024: Shaping an environmentally sustainable and inclusive digital future*. Geneva: United Nations, 2024. <https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024>
8. Statista. E-commerce worldwide – statistics & facts. Statista Research Department. <https://www.statista.com/topics/871/online-shopping/>
9. World Bank. *Digital Development Overview*. Washington, DC: World Bank Group, 2023. <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment/overview>
10. OECD. *OECD Digital Economy Outlook 2024, Volume 1: Embracing the Technology Frontier*. Paris: OECD Publishing, 2024. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-digital-economy-outlook-2024-volume-1_a1689dc5-en.html
11. McKinsey & Company. The state of AI: How organizations are rewiring to capture value. Global Survey on AI. McKinsey Global Institute. <https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai>
12. HubSpot. *The 2024 State of Marketing Report*. Cambridge, MA: HubSpot Inc. <https://www.hubspot.com/state-of-marketing>
13. Google. Think with Google. Consumer Insights Hub. <https://www.thinkwithgoogle.com/consumer-insights/>
14. Deloitte. *2024 Global Marketing Trends*. Deloitte Insights. <https://www2.deloitte.com/us/en/insights/topics/marketing-and-sales-operations/global-marketing-trends.html>
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi. <https://stat.uz>
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Rasmiy ma'lumotlar portali. <https://cbu.uz>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6600413>
18. Järvinen, J., Karjaluoto, H. The use of web analytics for digital marketing performance measurement // *Industrial Marketing Management*. 2015. Vol. 50. P. 117–127. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2015.04.009>
19. Ryan, D. *Understanding Digital Marketing: A complete guide to engaging customers with online marketing*. 5th ed. London: Kogan Page, 2020. 472 p. <https://www.koganpage.com/marketing-communications/understanding-digital-marketing-9781789664317>
20. Leeflang, P. S. H., Verhoef, P. C., Dahlström, P., Freundt, T. Challenges and solutions for marketing in a digital era // *European Management Journal*. 2014. Vol. 32, No. 1. P. 1–12. <https://doi.org/10.1016/j.emj.2013.12.001>
21. Kumar, V., Reinartz, W. *Customer Relationship Management: Concept, Strategy, and Tools*. 3rd ed. Berlin, Heidelberg: Springer, 2018. 411 p. <https://doi.org/10.1007/978-3-662-55381-7>
22. Ascend2. *Digital Marketing Benchmarks and Trends Research Report*. <https://ascend2.com/research/>
23. Insider Intelligence / eMarketer. Worldwide Retail E-commerce Forecast. Insider Intelligence Inc. <https://www.emarketer.com/content/worldwide-retail-e-commerce-forecast>
24. Salesforce. *State of Marketing Report, 10th Edition*. Salesforce Inc. <https://www.salesforce.com/resources/research-reports/state-of-marketing/>
25. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi. Rasmiy portal. <https://mitc.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100